

**TOSHKENT SHAHARI TOPONIMIKASI: TARIXIY VA MADANIY
ASOSLARI VA ZAMONAVIY TALQINI****Tursunov Abdulla**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18920621>**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Toshkent shahri toponimikasi, uning shakllanish tarixi va nomlar tizimining ijtimoiy-madaniy mazmuni ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqotda shahar hududidagi qadimiy mahalla, ko'cha, darvoza, mavze va tabiiy geografik obyektlarning nomlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Toshkent toponimlarining asosiy qatlamlari — qadimgi turkiy, eroniy, arabcha va XVIII–XIX asrlar rus manbalarida uchraydigan nomlar qiyosiy o'rganiladi. Shahar tarixiy rivojlanishi davomida toponimlarning o'zgarishi, ularning semantik mazmuni, etimologik ildizlari, ularni shakllantirgan etnik, siyosiy va madaniy omillar yoritiladi. Tadqiqot natijalari Toshkentning ko'p qatlamli tarixiy manzarasini ochib berishga, shahar madaniy merosini tadqiq etishda toponimik ma'lumotlarning ahamiyatini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Toshkent, Choch, Shosh, Binkant, non shahri, tosh shahar, ShoshKent, Chochiston.

Abstract

This article discusses the toponymy of Tashkent, the history of its formation and the socio-cultural content of the naming system on a scientific basis. The study analyzes the naming processes of ancient neighborhoods, streets, gates, districts and natural geographical objects in the city. The main layers of Tashkent toponyms - names found in ancient Turkic, Iranian, Arabic and Russian sources of the 18th-19th centuries - are studied comparatively. The changes in toponyms during the historical development of the city, their semantic content, etymological roots, and the ethnic, political and cultural factors that shaped them are highlighted. The results of the study serve to reveal the multi-layered historical landscape of Tashkent and to show the importance of toponymic information in studying the cultural heritage of the city.

Keywords: Tashkent, Choch, Shosh, Binkant, non shahri, tosh shahri, ShoshKent, Chochistan.

Toshkent toponim ini k o 'p adabiyotlarda "Tosh shahar" deb izohlanadi.

Shu so 'zda m a'lum m a'noda shahar tarixi ham o'z aksini topgan. Arxeologik izlanishlar natijasida shahar hududida tosh asriga oid buyum lar k o 'plab uchragan. Toshkentdagi qabristonlardan birida topilgan haft jo'sh (bronza)

ko'zgular turli mamlakatlarning tangalari shaham ing kam ida 2000 yillik tarixidan darak beradi.

Xususan, Vatanimiz poytaxti Toshkent shaharining UNESCO e'tiboriga tushib, 2009-yilda 2200 yillik tavallud kunining nishonlanishi alohida e'tiborga loyiq.

Poytaxtim izni turlicha ulug'laydilar: "Toshkent - non shahri", "Toshkent - tinchlik shahri". "Toshkent - bog' - rog'lar shahri", "Toshkent - do'stlik shahri", "Toshkent-jasorat shahri" va hokazo.

Toshkent shahrining nomi yozma manbalarda Choch, Chochiston, Shosh, Shoshkent shakllarida ham uchraydi. Choch so'zi ham sug'd tilida «tosh» demak. Shosh esa Choch nomining arabcha shaklidir. Choch yoki Shosh deganda Toshkent hamda uning atroflari tushunilgan. X asrda noma'lum muallif tomonidan fors-tojik tilida yozib qoldirilgan «hudud ul-olam» («Dunyoning hadlari») nomli asarda bunday deyiladi: «Choch katta viloyat, xalqi jangovar, boy va sahiydir. U yerda o'q-yoy tayyorlanadi. Binkant Chochning poytaxti. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshoning qarorgohidir». Arabinavis olimlardan Istahriy, Ibn havqal, Muqaddasiy va boshqalar (IX-X asrlar) o'z asarlarda Shosh viloyatining markazi

Binkat shahri deb ko'rsatganlar. Binkat hozirgi Eskijo'va va Chorsu oralig'ida bo'lgan. Binkat nomi forscha-tojikcha bo'lib, «ko'rimli shahar» demakdir (bin — ko'rinish, ko'zga tashlanish, kat — sug'dcha «shahar, qishloq, manzilgoh» degan ma'noni bildirgan). O'rta Osiyoning biron shahri Toshkentchalik ko'p iom bilan

atalmagan bulsa kerak. Urta asr boshlarida Tarkan, Arab manbalarida Shosh, tojik-fors tilida Choch va Joj buyurtmada yozilgan. Yana Binkant, daslabki ruscha qartarlarda Tashkuna, Xitoy manbalarida Che-shi va Ta-shi-xon deyilgan. Tarband (IX-X asrlardagi arab tarixchilari Belazuriy va Toboriy asarlarida), Tarkan (Mahmud Koshg'ariy asarlarida). Toshkent shahri Rossiyada XVI asrda tanilgan va "Toshko'ra" nomi bilan "Katta chizmalar kitobi"ga kiritilgan. Buyuk Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qonuni M as'udiy" asarida "Binkat - bu Shoshning poytaxti, turkiy tilda "Toshkand", yunonchadan arabchaga tarjim a qilsang, - "Buri al-hijori" ("Tosh m inora") deb yozgan. Beruniyning so'zlarini boshqa olimlar ham tasdiqlagan. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida "Tarkan - Shoshning nomi, uning asli nomi T oshkand bo'-lib "g'ishtdan qurilgan shahar dem akdir", deb yozgan. Dem ak, poytaxtimiz nom ining "Toshkent" shakli birinchi bor Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchraydi

va shahar boshqa nom lar bilan ham atalgan. nihoyat hozirgi nomi tilim izda q a t'iy o'rin olgan. Toshkent haqida ozmi -ko'pmi ma'lum otlar XIV - XIX asrlarda o'rta Osiyoning siyosiy, harbiy va m adaniy hayoti haqidagi asarlarda ham uchraydi. Shaham ing XIX asr tarixi, topografiyasi (geografiyasi), jum ladan uning toponimlari haqida m a'lum otlar Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" ("Toshkentning yangi tarixi") asarida uchraydi. Qo'lyozma fors-tojik tilida bitilgan b o 'lib, hozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Asar asli Toshkent viloyati tarixi haqida bolib. muallif shahar tarixini butun o'lkada kechgan voqealar ko'lankasida yoritgan.

Xulosa: Toshkent shahari toponimikasi ko'p qatlamli tarixiy jarayonlarning mahsulidir. Unda qadimgi Shosh davridan tortib, mustaqillik davrigacha bo'lgan siyosiy, diniy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar aks etgan. Toponimikani o'rganish Toshkent tarixini yanada chuqurroq anglashga, shahar taraqqiyotining bosqichlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. QORAYEV "Toponimik" T-2026 y.
2. X. XACAHON3 "ЎРТА ОСИЁ ЖОЙ НОМЛАРИ ТАРИХИДАН" T-1965 й.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti "O'ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG'ATI" T-2022 y.
4. Zohid Madrahimov "TARIXIY TOPONIMIKA" T-2017 y.